

YIMNI RIVOJLANTIRISHDA ISLOM MOLİYASINING TA'SIRI

Xikmatov A'lambek Ayubovich

Buxoro davlat universiteti, raqamli iqtisodiyot yo'nalishi magistri.

Annotatsiya. Ushbu maqola Islom moliyasining Yalpi ichki mahsulot (YIM) rivojlanishiga ta'sirini tahlil qiladi. Unda Islom moliyasining adolat, foizsizlik va real iqtisodiyotga bog'liqlik tamoyillariga asoslangan holda iqtisodiy o'sish, investitsiyalarni jalb qilish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashdagi roli o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Islom moliyasi, YIM, iqtisodiy o'sish, investitsiya, barqarorlik, foizsiz moliyalashtirish, real sektor.

Abstract. This article analyzes the impact of Islamic finance on Gross Domestic Product (GDP) development. It explores the role of Islamic finance in ensuring economic growth, attracting investments, and social stability, based on principles of justice, interest-free transactions, and linkage to the real economy.

Keywords: Islamic finance, GDP, economic growth, investment, stability, interest-free financing, real sector.

Аннотация. В этой статье анализируется влияние исламских финансов на развитие валового внутреннего продукта (ВВП). В ней исследуется роль исламских финансов в обеспечении экономического роста, привлечении инвестиций и социальной стабильности, основанных на принципах справедливости, беспроцентности и привязке к реальной экономике.

Ключевые слова: Исламские финансы, ВВП, экономический рост, инвестиции, стабильность, беспроцентное финансирование, реальный сектор.

Kirish

Iqtisodiy rivojlanish va barqarorlikni ta'minlashda moliyaviy tizimlarning roli beqiyosdir. An'anaviy moliyaviy modellar global miqyosda keng tarqalgan bo'lsa-da, Islom moliyasi o'zining noyob tamoyillari bilan tobora ko'proq e'tibor qozonmoqda. Islom moliyasi adolat, foizdan voz kechish, real iqtisodiyotga bog'liqlik va riskni teng taqsimlash kabi asosiy prinsiplarga tayanadi. Bu esa uni nafaqat diniy asoslangan, balki iqtisodiy o'sish va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga qodir samarali vosita sifatida ajratib turadi [1].

Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda ham, Islom moliyasi yalpi ichki mahsulot (YIM) o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Uning inklyuziv va

barqaror xususiyatlari iqtisodiy faollikni rag'batlantirib, yangi investitsiyalarni jalb etishga xizmat qiladi. Islom moliyasi real sektorni rivojlantirish, moliyaviy kirish imkoniyatlarini oshirish va sarmoyaviy faollikni kuchaytirish orqali YIMni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu boisdan, Islom moliyasini yanada rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy strategiyalarning muhim yo'nalishlaridan biri bo'lishi lozim. O'zbekistonda ham keyingi yillarda iqtisodiy liberallashtirish va moliyaviy tizimni diversifikatsiya qilish doirasida Islom moliyasi elementlari bosqichma-bosqich joriy etilmoqda [2].

Adabiyotlar tahlili

Islom moliyasining yalpi ichki mahsulot (YIM) rivojlanishiga ta'siri so'nggi yillarda tobora ko'proq tadqiqotchilar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bu mavzu bo'yicha olib borilgan adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, Islom moliyasi iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashda muhim salohiyatga ega.

Tadqiqotchilar Islom moliyasining an'anaviy banklardan farqli ravishda jamiyatning ehtiyojlarini qondirishda yanada samarali ekanligini ko'rsatishgan. Foyda va zararni bo'lishish, sheriklik kabi printsiplarga asoslangan Islom moliyasi iqtisodiyotni ko'proq ijtimoiy manfaatlarga yo'naltirishi natijasida yanada barqarorlikka erishish mumkinligi tadqiq etilgan. Masalan, Mohamad Torik Langlang Buana va boshqalar (2023) o'z maqolalarida islom banklarida infratuzilmalarni moliyalashtirish imkoniyatlarini ko'rib chiqqanlar va infratuzilma pudratchilarini moliyalashda bank sanoati duch kelishi mumkin bo'lgan muammolarni tahlil qilishgan. Shuningdek, islom banklari tomonidan pudratchilarni moliyalashtirish bo'yicha nazariy va amaliy bilimlarda bo'shliq borligi aniqlangan [3].

Ba'zi tadqiqotlar Islom moliyasining YIMga bevosita ijobiy ta'sirini ko'rsatgan. Masalan, Malayziya va Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) kabi mamlakatlarda sukuk emissiyasi, islomiy bank xizmatlari hamda infratuzilmaviy investitsiyalar orqali Islom moliyasi YIMning 10-15 foizgacha bo'lgan o'sish sur'atlariga hissa qo'shgan. Bu mamlakatlarda Islomiy moliyaviy vositalar nafaqat moliyaviy tizimni chuqurlashtirdi, balki xususiy sektor, ayniqsa KOB (kichik va o'rta biznes) faoliyatini jonlantirdi. Sirojiddin Abrorovning tadqiqotlarida ham Islom moliyasi iqtisodiy o'sish va samaradorlikni olib kelishi, an'anaviy moliya tizimi bilan teng sharoitlarda raqobatlashishi qayd etilgan [4].

Biroq, ayrim tanqidiy nuqtalar ham mavjud. Ba'zi olimlar islom moliyasini yanada zamonaviy va samarali boshqarish uchun uni dunyoviylik tamoyili va zamonaviy iqtisodiy tamoyillar bilan uyg'unlashtirish kerakligini ta'kidlashadi. Foizsiz moliyalashtirishning yetarli emasligi, halol va harom chegaralarining noaniqligi, risklarni boshqarishning yetarli emasligi, shuningdek ta'lim va xabardorlikning yo'qligi Islom

moliyasi tizimini to'liq tatbiq etishni qiyinlashtirishi mumkin. Shu bilan birga, audit va shaffoflikning yetishmasligi ham Islom moliya institutlarida muammo sifatida ko'rsatilgan.

O'zbekiston misolida esa, so'nggi yillarda Islom moliyasining bosqichma-bosqich joriy qilinishi mikro, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkonini bermogda. Foizsiz kreditlar, musharaka asosidagi sherikliklar va boshqa shariy moliyaviy xizmatlar orqali ushbu qatlamdagi iqtisodiy faollik ortmogda. Bu esa bandlik darajasining oshishiga, soliq tushumlarining kengayishiga va o'z navbatida YIM hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatmogda. Nadem Ul Haqu va Abbas Miraxor (1998) islom iqtisodiyotida davlat moliyalashtirish vositalarining rivojlanishini muhokama qilganlar, bu esa infratuzilma loyihalarini moliyalashtirishda resurslarni safarbar qilish imkoniyatini taqdim etadi [5].

Xulosa qilib aytganda, adabiyotlar tahlili Islom moliyasining iqtisodiy o'sish va barqarorlikni ta'minlashdagi salohiyatini tasdiqlaydi, ammo uning to'liq imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun mavjud muammolarni hal etish zarurligini ham ko'rsatadi..

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot Islom moliyasining YIMga ta'sirini har tomonlama o'rganish maqsadida sifat va miqdoriy yondashuvlarni o'zida mujassam etgan. Tadqiqotning asosiy metodologiyasi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Adabiyotlar tahlili: Islom moliyasining nazariy asoslari, uning tamoyillari va YIMga ta'siriga oid mavjud ilmiy adabiyotlar, maqolalar, hisobotlar va tadqiqotlar chuqur o'rganildi. Bu bosqichda Islom moliyasining iqtisodiy o'sishga ta'sirini baholovchi mavjud modellari va empirik tadqiqotlar ko'rib chiqildi. Xususan, Malayziya va Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) kabi davlatlarning tajribasi tahlil qilindi.

Kontent tahlili: Islom moliyasi institutlarining faoliyati, ular tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy mahsulotlar (murabaha, ijara, musharaka, mudaraba, sukuk) va ularning real iqtisodiyotga ta'siri (qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmatlar) o'rganildi. Bu tahlil Islom moliyasining qaysi mexanizmlar orqali YIMga ta'sir ko'rsatayotganini aniqlashga yordam berdi.

Qiyosiy tahlil: An'anaviy moliyaviy tizimlar bilan Islom moliyasining farqlari, ularning iqtisodiy o'sishga ta'siridagi o'ziga xosliklari qiyosiy jihatdan baholandi. Xususan, foizsiz moliyalashtirishning spekulativ operatsiyalardan farqli o'laroq, ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarini bevosita moliyalashtirishi ta'kidlandi.

Sistemali yondashuv: Islom moliyasining iqtisodiy inklyuzivlik, ijtimoiy barqarorlik, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, sarmoya oqimini oshirish kabi kompleks ta'sirlari bir butun tizim sifatida ko'rib chiqildi. Bu yondashuv Islom moliyasining YIMga ta'sirining ko'p qirrali ekanligini ochib berdi.

Empirik ma'lumotlarga tayanish: O'zbekiston misolida Islom moliyasining bosqichma-bosqich joriy etilishi, mikro, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy qo'llab-quvvatlanishi natijasida bandlik darajasining oshishi va soliq tushumlarining kengayishi kabi amaliy natijalar tahlil qilindi. Bu esa YIM hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar

O'zbekistonda Islom moliyasining iqtisodiyotga ta'sir mexanizmlari borasida shuni ayta olamizki foizsiz moliyalashtirish iqtisodiyotga real aktivlar asosida sarmoya kiritishni talab qiladi. Mudaraba va musharaka kabi sheriklik asosidagi shartnomalar tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlaydi. Zakat va vaqf kabi vositalar orqali ijtimoiy tenglik va kambag'allikni kamaytirish YIMda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi [6].

Keyingi yillarda iqtisodiy liberallashtirish va moliyaviy tizimni diversifikatsiya qilish doirasida Islom moliyasi elementlarini bosqichma-bosqich joriy etmoqda. Islom moliyasi iqtisodiyotga o'ziga xos va samarali yo'llar bilan ta'sir ko'rsatadi, ayniqsa, tadbirkorlikni rag'batlantirish, sarmoyani oshirish, ijtimoiy adolatni ta'minlash va moliyaviy inklyuziyani kengaytirishda.

Foizsiz moliyalashtirish asosida real iqtisodiy faollikni oshirishda islom moliyasi asosiy moliyaviy vositalarni real aktivlarga bog'laydi (masalan, murabaha, ijara, musharaka). Bu esa spekulativ operatsiyalardan farqli ravishda ishlab chiqarish, savdo va xizmat ko'rsatish sohalarini bevosita moliyalashtiradi. Natijada YIM tarkibida real sektor (qishloq xo'jaligi, sanoat, xizmatlar)ning ulushi ortadi.

Tadbirkorlik va KOB segmentini qo'llab-quvvatlashda islomiy moliyalashtirishda foyda-zararni baham ko'rish tamoyili bor. Bu esa yangi bizneslar uchun xavfni kamaytiradi. Mudaraba va musharaka bitimlari orqali investorlarga sheriklik asosida sarmoya kiritish imkoniyati yaratiladi. Natijada kichik va o'rta bizneslar (KOB) soni va mahsuldorligi oshadi [7].

Sarmoya oqimini oshirish va yangi investitsiyalar jalb qilishdagi o'rni ham juda ahamiyatlidir. Islom moliyasining global o'sishi fonida suveren va xususiy sektor uchun sukuk (islomiy obligatsiyalar) chiqarish imkoniyati mavjud. Tashqi islomiy moliyaviy institutlar (masalan, Islom Taraqqiyot Banki, ICD) orqali yirik infratuzilma loyihalari moliyalashtirilmoqda. Natijada Investitsiya ko'lami kengayadi, YIM o'sishiga hissa qo'shadi.

Ijtimoiy barqarorlik va kambag'allikni kamaytirish borasida Islom moliyasi ijtimoiy adolat va kambag'allarni qo'llab-quvvatlashga asoslangan. Kambag'al qatlamlarga mikromoliyalashtirish xizmatlari ko'rsatiladi, ayniqsa, foizsiz kreditlar orqali. Natijada ijtimoiy tengsizlik kamayadi, ichki talab ortadi.

Moliyaviy inklyuziya va halol iqtisodiyot sektorining kengayib boradi. Aholining an'anaviy bank tizimiga ishonmagan yoki diniy e'tiqodiga zid deb hisoblagan qatlamlari

uchun yangi moliyaviy kirish imkoniyatlari ochiladi. Bu sektor, ayniqsa, qishloq joylarida va diniy aholi ko'pchilikni tashkil qiladigan hududlarda iqtisodiy faollikni oshiradi. Natijada rasmiy iqtisodiyotga ko'proq subyektlar jalb qilinadi [8].

Sarmoya va innovatsiyalarni rag'batlantirishda islomiy moliyaviy institutlar an'anaviy banklardan farqli o'laroq, riskni baham ko'ruvchi investor sifatida faoliyat yuritadi. Bu yondashuv, ayniqsa, yuqori noaniqlik darajasiga ega bo'lgan innovatsion va startap loyihalar uchun moliyaviy ishonch muhitini shakllantiradi. Shu bilan birga, sukuk (islomiy obligatsiyalar) vositasi orqali infratuzilma, energetika, transport va ijtimoiy sohalardagi yirik loyihalarni moliyalashtirish imkoniyati yaratiladi. Bunday investitsiyalar Yalpi Ichki Mahsulot (YIM) tarkibida kapital qo'yilmalar hajmining ortishiga, ish o'rinlari yaratilishiga va iqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi [9].

Iqtisodiy inklyuzivlik va moliyaviy kirish imkoniyatlarini oshirishda islomiy moliyaviy xizmatlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. An'anaviy bank tizimiga turli sabablarga ko'ra (diniy e'tiqod, past daromad, kafillik yetishmasligi) qo'shila olmayotgan aholi qatlamlari uchun islomiy moliyaviy institutlar alternativ imkoniyat yaratadi. Foizsiz kreditlar, riskni baham ko'ruvchi sheriklik shartnomalari (mudaraba, musharaka) hamda halol investitsiya vositalari orqali aholi moliyaviy tizimga jalb qilinadi. Bu esa ichki talabning ortishiga, kichik biznes va xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanishiga olib keladi. Natijada, YIM tarkibida xizmatlar va ishlab chiqarish sektorlarining ulushi ortadi, iqtisodiy o'sish esa yanada barqaror va inklyuziv tus oladi.

Amaliy tajribalar shuni ko'rsatadiki, islom moliyasi orqali moliyalashtirilgan loyihalar ayrim davlatlarda YIM o'sishida muhim omil bo'lmoqda. Jumladan, Malayziya va Birlashgan Arab Amirliklari (BAA) kabi mamlakatlarda sukuk emissiyasi, islomiy bank xizmatlari hamda infratuzilmaviy investitsiyalar orqali islom moliyasi YIMning 10–15 foizgacha bo'lgan o'sish sur'atlariga hissa qo'shgan. Bu mamlakatlarda islomiy moliyaviy vositalar nafaqat moliyaviy tizimni chuqurlashtirdi, balki xususiy sektor, ayniqsa KOB (kichik va o'rta biznes) faoliyatini jonlantirdi.

O'zbekiston misolida esa, so'nggi yillarda islom moliyasining bosqichma-bosqich joriy qilinishi mikro, kichik va o'rta tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash imkonini bermoqda. Foizsiz kreditlar, musharaka asosidagi sherikliklar va boshqa shariy moliyaviy xizmatlar orqali ushbu qatlamdagi iqtisodiy faollik ortmoqda. Natijada bandlik darajasi oshmoqda, soliq tushumlari kengaymoqda, bu esa o'z navbatida YIM hajmiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda [10].

Xulosa

Ushbu tadqiqot Islom moliyasining Yalpi ichki mahsulot (YIM) rivojlanishiga ta'sirini har tomonlama o'rganib chiqdi va uning iqtisodiy o'sishga ko'p qirrali ijobiy ta'sirini

tasdiqladi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, Islom moliyasi o'zining foizsiz moliyalashtirish, real sektorga yo'naltirilganlik, foyda va zararni baham ko'rish hamda ijtimoiy adolat tamoyillari asosida iqtisodiyotga sezilarli hissa qo'shadi.

Xususan, Islom moliyasi real sektorga investitsiyalarni jalb qilish orqali ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarining ulushini oshiradi. Kichik va o'rta biznes (KOB)ni qo'llab-quvvatlash orqali yangi ish o'rinlari yaratiladi va tadbirkorlik faolligi kuchayadi. Shuningdek, sukuklar orqali yirik infratuzilma loyihalariga sarmoya jalb qilinishi mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiladi. Ijtimoiy adolatga asoslangan Islom moliyasi mikromoliyalashtirish va kambag'allikka qarshi kurashish orqali ijtimoiy tengsizlikni kamaytirib, ichki talabni oshiradi. Moliyaviy inklyuziyani kengaytirish orqali esa aholining keng qatlami moliyaviy tizimga jalb qilinadi va rasmiy iqtisodiyot hajmi kengayadi.

Malayziya va Birlashgan Arab Amirliklari kabi davlatlarning tajribasi Islom moliyasining YIM o'sishiga 10-15% gacha hissa qo'shganini ko'rsatadi. O'zbekistonda ham Islom moliyasi elementlarining joriy etilishi mikro va kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlab, bandlikni oshirish va soliq tushumlarini kengaytirish orqali YIMga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, Islom moliyasining to'liq salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun hal etilishi lozim bo'lgan muammolar ham mavjud, jumladan, huquqiy asoslarni mustahkamlash, kadrlar salohiyatini oshirish va aholining xabardorligini oshirish. Xulosa qilib aytganda, Islom moliyasi zamonaviy iqtisodiy rivojlanish uchun istiqbolli va samarali vosita bo'lib, uning imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanish mamlakat iqtisodiyotining barqaror va inklyuziv o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi..

Adabiyotlar ro'yhati

1. Ahmed, H., & Khan, T. (2018). Islamic Finance: A Global Perspective. Palgrave Macmillan.
2. Ascarya, A. (2014). Maqasid al-Shari'ah and Islamic economics. Al-Shajarah: Journal of the International Institute of Islamic Thought and Civilization (ISTAC), 19(Special Issue), 193-214.
3. Hassan, M. K., & Mahlknecht, M. (2011). Islamic Capital Markets: Products, Regulation, and Development. John Wiley & Sons.
4. Iqbal, Z., & Mirakhor, A. (2007). An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice. John Wiley & Sons.
5. Karim, S. (2010). Islamic Finance and Economic Development: A Survey of the Literature. Islamic Research and Training Institute (IRTI).

6. Khan, M. A. (2009). Islamic Economics and Finance: A Glossary. Edward Elgar Publishing.
7. Obaidullah, M. (2008). Islamic Financial Services. Palgrave Macmillan.
8. Siddiqi, M. N. (2006). Rethinking Islamic Economics. Islamic Foundation.
9. Wilson, R. (2009). Islamic Finance in the Global Economy. Edinburgh University Press.
10. Zamir Iqbal, M., & Abbas Mirakhor, A. (2011). An Introduction to Islamic Finance: Theory and Practice (2nd ed.). John Wiley & Sons.

